

PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARINI O'QUVCHILARDA BILISHGA QIZIQISHINI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASHNING MAVJUD IMKONIYATLARI

Andijon davlat pedagogika instituti

Tayanch doktoranti

Umnova Maxsumaxon Qobuljon qizi

Annotatsiya: *maqolada hozirgi innovatsion ta'lim muhitidagi pedagogik oliy ta'lim talabalarini o'quvchilarda bilishga qiziqishini rivojlantirishga tayyorlashning mavjud imkoniyatlari tahlil qilindi, unda metodologik asos sifatida hukumat qarorlari va farmonlari, olimlarning muommo haqidagi qarashlari, fikr mulohazalari tadqiq etilgan. Mavjud imkoniyatlarni tahlil qilishda tadqiqotimiz doirasda pedagogik oliy ta'lim pedagogika yo'nalishi talabalarini obyekt sifatida tanlab olingan*

Kalit so'zlar: *bilishga qiziqish, pedagogik oliy ta'lim, talabalar, malaka talablari.*

Ta'lim sohasini isloh etish va uni dunyo standartlariga muvofiqlashtirish jamiyatning ma'naviy va ma'rifiy yuksalishida muhim omil sanaladi. Yurtimizning qaysi sohasini olmaylik barchasi yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish masalasiga taqaladi, chunki barcha sohaning negizida sifatli ta'lim olgan mutaxassis talab va taklif munosabatlari mavjud. Kichik maktab yoshidan o'quvchilarni qiziqishlarini aniqlash kelgusida yetuk mutaxassislarni mehnat bozoriga olib chiqishga zamin yaratadi.

Boshlang'ich ta'lim davri bilish jarayonlarning intensiv rivojlanishi va sifat jihatidan o'zgarish bosqichi sanalib bevosita va bilvosita rivojlanishni boshlaydi. Bosqichma-bosqich osondan murakkabgacha bo'lgan jarayonda bola bilish (aqliy intellektual) jarayonlarni o'zlashtira boshlaydi, jumladan idrokini, e'tiborini, xotirasini nazorat va boshqarishni o'rganadi.

I.V.Dubrovinaning "Kichik maktab o'quvchilarining bilish qobiliyatlarini rivojlantirish" nomli qo'llanmasida yozilishicha, kichik maktab yoshida bola quyidagi jarayonlarni rivojlanishida o'ta sezgir bo'ladi, bular: o'quv motivlarini shakllantirish, barqaror bilish ehtiyojlari va qiziqishlarini rivojlantirish; o'rganishning samarali usul va ko'nikmalarini o'zlashtirish, o'rganish ko'nikmasini rivojlantirish; bilish qobiliyatlarini kashf etish. Boshlang'ich ta'lim yosh davrida bolada mustaqillik, o'zini o'zi boshqarish, va bilish faoliyatini nazorat qilish belgilari paydo bo'ladi. O'quvchi o'z oldiga maqsad qo'yishi va unga erishish yo'lini topishi mumkin. Bola o'zi tajribani boshidan o'tkazib natijasini mustaqil ravishda baholaydi deydi.

Umuman olganda, o'quvchilarining bilish va izlanuvchanlik faoliyati davomida, N.V.Grachev fikricha: dialektik tafakkurni shakllantirish, ya'ni dunyoning xilma-xilligini o'zaro bog'liqlik va o'zaro qaramlik tizimida ko'rish qobiliyati; ko'rgazmali vositalar (etalonlar, maketlar, belgilar, shartli o'rnini bosuvchilar) yordamida umumlashtirilgan ko'rinishda shaxsiy bilish tajribasini rivojlantirish; o'quvchilarni

fikrlovchi, modellashtirish va isloh qilish kabi harakatlariga jalb qilish orqali ularning izlanish va bilim faolligini rivojlantirish istiqbollarini kengaytirish; tashabbuskorlikni qoʻllab quvvatlash, qiziquvchanlik, tanqidiylik, mustaqillik, zukkolik kabi malaka va koʻnikmalarini rivojlanishi amalga oshiriladi.

Boshlangʻich taʼlim bosqichida, A.L.Vengerning fikriga koʻra, bilish faoliyatini rivojlantirishga yordam beradigan quyidagi bilish xarakatlari shakllanishi kerak: chuqur bilishga qiziqish va motivlari, qiziquvchanlik va ijodkorlikni rivoj topishi; oʻquv va bilish jarayonlariga oid vazifalarni qabul va ularni yechish istagi; bilish tashabbuskorligini namoyon boʻlishi (savol berish qobiliyati, oʻquv jarayonidagi hamkorlikda ishtirok etish); axborot va maʼlumot qidirishda (kutubxonalarda) harakat qilish qobiliyati, natijasida muvofiq resurslarni kattalar bilan hamkorlikda va mustaqil foydalana olish qoʻnikmasini shakllantirish.

K.E.Izardning fikricha, qiziqish – bu ijobiy his-tuygʻu boʻlib, uni inson boshqa hislarga qaraganda tez-tez boshdan kechiradi. Qiziqish malaka, koʻnikma va intellektni shakllantirish va rivojlantirishda juda muhim motivasion rol oʻynaydi. Qiziqish – bu insonning ishchanligini taʼminlovchi yagona motivasiya boʻlib, bundan tashqari, bu ijodkorlik uchun zarur hisoblanadi deb taʼriflaydi.

Ammo bizning fikrimizcha, qiziqish nafaqat ishchanlikni, balki bekorchilikni, vaqtni behuda sarflash kabi oqibatlariga ham olib kelishi mumkin. Misol uchun, oʻquvchi kompyuter oʻyinlariga qiziqib qolsa, xar kuni oʻyin haqida, undagi qahramonlar va qanday qilib shu oʻyinda gʻolib boʻlishni oʻylaydi. Darsdan soʻng, imkoniyat topib albatta qayta qayta oʻynab koʻradi. Bu ham bizning fikrimizcha qiziqish hisoblanib, oʻquv faolitdan ogʻishga olib keladi.

Qator tadqiqodchi olimlarning turli yosh davrlaridagi oʻquvchilarda bilish jarayonlarini faollashtirish muommosi oʻrganilganida bilishga qiziqish kabi intellektual hodisani oʻrganish dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Chunki bilishga qiziqish kuchli ragʻbatlantiruvchi, izlantiruvchi va yoʻnaltiruvchi hususiyatiga ega boʻlib, bilish (aqliy intellektual) jarayonlarni samarali rivojlantirishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga koʻra, tadqiqodchi olimlar oʻquvchilarni turli yosh davrlarida bilishga qiziqishini aniqlash, tashhis qoʻyish usullarini ishlab chiqqanlar.

Pedagogik-psixologik adabiyotlar tahliliga koʻra, shaxsning bilishga qiziqishlarini individual-tipik hususiyatlarini, shuningdek, mazkur oʻziga hoslik bilan umumiy semantik makonni tashkil etuvchi hodisalar, yaʼni bilish faoliyat, bilishga ehtiyoj, bilishga yoʻnalganlik mavjudligini aniqlash maqsadida turli yosh davrdagi oʻquvchilari uchun turli hil usullardan foydalanilgan.

E.A.Baranova usullarni shartli uch hil turga klassifikasiyalaydi:

- I. Bevosita idrokga asoslangan usullar.
- II. Ijtimoiy usullar.
- III. Maxsus ishlab chiqilgan eksperimental usullar.

Bizning fikrimizcha, ushbu usullar klassifikatsiyasi, albatta, sezilarni afzalliklarga ega: birinchidan, ushbu o'rganish usuli subyektlarning turli toifalarida bilishga qiziqishni ifodalashning individual va individual-tipik o'ziga xosligini aniqlash va differentsiyalash nuqtai nazaridan eng informativ hisoblanadi; ikkinchidan juda qisqa vaqt ichida ishonchli va to'g'ri ma'lumot olish imkonini beradi.

Tadqiqotning predmeti sifatida bilishga qiziqish, bilishga ehtiyoj, bilish faoliyat va mustaqillikni, shuningdek o'quv motivlarini o'rganishning konseptual modellarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, faqat ba'zi hollarda tadqiqotchi olimlar eksperimental bo'lmagan usullardan foydalanishga moyildirlar. Misol tariqasida M.I.Bekoevaning o'quvchilarda bilishga qiziqishlarini o'rganish ilmiy izlanishidagi diagnostikaning asosiy usuli o'qituvchi va o'quvchilardan so'rovnomani olish usuli bo'lgan.

Pedagogik diagnostika pedagogik tizimda fikr-mulohazalarni aniqlashni va aloqadorligini ta'minlaydi. Uning yordami bilan boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilishga qiziqishlarining holati va shakllanish darajasi to'g'risida ma'lumot olish, ularning shakllanish jarayonini to'g'irlash mumkin; kelajakda kichik maktab o'quvchilarining bilishga qiziqishlarini rivojlantirish va shakllantirishdagi o'zgarishlarni prognoz qilish; boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilishga qiziqishlarini shakllantirish jarayonida ularni korreksiyalash, tashxis qo'yish, o'qituvchi o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Bilishga qiziqishni o'rganishning murakkabligi uning paydo bo'lishi, namoyon bo'lishi va rivojlanish tabiati boshqacha ekanligi bilan belgilanadi. Bilishga qiziqishni o'rganishning barcha bosqichlarida uning diagnostikasi muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayonni diagnostika qilish uchun mezonlar tizimini aniqlash lozim. Psixologo-pedagogik adabiyotlarni tahlili shuni ko'rsatadiki, turli tadqiqotchilar (B. G. Anan'ev, L. S. Vigotskiy, L. S. Slavina, G.I. Shukina va boshqalar.) bilishga qiziqishni shakllantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqqan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Дубровина, И. В. Младший школьник: развитие познавательных способностей [Текст]: пособие для учителя / И.В. Дубровина, А.Д. Андреева, Е.Е. Даниловапод ; ред. И.В. Дубровиной. – М. : Просвещение, 2003. – 148 с
2. Грачева, Н. В. Педагогические условия активизации познавательной направленности школьников [Текст] : автореф. дис. ...канд. пед. наук : 13.00.01 / Н. В. Грачева; Киров, 2003. – 55 с
3. Венгер, А. Л. Психология развития [Текст] : словарь / А. Л. Венгер. – М. : АСТ, 2005. – 176 с.
4. Изард К. Э. Из32 Психология эмоций. — СПб.: Питер, 2012. — 464 с: ил. — (Серия «Мастера психологии»).
5. психологии»).
6. Баранова Э.А. ДИАГНОСТИКА ПОЗНАВАТЕЛЬНОГО ИНТЕРЕСА у младших школьников и дошкольников. – СПб., Речь. 2005- 128 с. – 9 б.